



TABIATSHUNOSLIK FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

Gadoymurodova Madina

Shahrisabz davlat pedagoika instituti
Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi
yo'nalishi (Boshlang'ich ta'lim)
1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18385804>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-yanvar 2026 yil
Ma'qullandi: 24-yanvar 2026 yil
Nashr qilindi: 27-yanvar 2026 yil

KEY WORDS

*tabiatshunoslik, pedagogik
texnologiya, interfaol metod, AKT,
innovatsion ta'lim, STEAM, metod,
tabiiy fanlar, darslik*

ABSTRACT

Mazkur maqolada tabiatshunoslik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayonini takomillashtirish masalalari va ushbu fanni o'qitish jarayonida qo'llanish mumkin bo'lgan zamoviy pedagogik, psixologik innovatsion texnologiyalar ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qilingan.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar keskin ortib bormoqda. Ayniqsa, tabiatshunoslik fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ekologik madaniyatini rivojlantirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish dolzarb masala hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti prezidenti Shavkat miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Atrof muhitni muhofaza qilish havo va suv sifati, yashil hududlarni rivojlantirish milliy ustuvor maqsadlarimizdan biridir".¹ Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, yosh avlodni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularga tabiatni sevishni, ekologik muammolarni kamaytirishga o'z hissani qo'shishga o'rgatish umumiy o'rta ta'lim maktablarining tabiiy fanlarini o'qitish jarayonida amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish keragidan ko'proq samara beradi.

An'anaviy o'qitish usullarida o'quvchi asosan bilimlarni passiv qabul qiluvchi sifatida qatnashadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar esa ta'lim oluvchini faol subyekt sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan. Xususan, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, STEAM yondashuvi va loyihaviy ta'lim tabiatshunoslik fanlarida yuqori samaradorlik beradi.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, kuzatish, so'rovnomalar va pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi.

❖ Nazariy tahlil metodi-pedagogik psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish orqali zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati va xususiyatlarini aniqlash. 1,2,3,4-sinflar tabiiy fanlarini tahlil qilish jarayonida shuni ko'rish mumkinki, darsliklardagi berilgan topshiriq va mashqlarning o'zi sizni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishga

¹ Ekologiya sohasida boshqaruvni takomillashtirish. Prezident.uz, 11-noyabr 2025 -yil

undaydi .Misol sifatida 1-sif tabiiy fan kitobining 2-qism darsligida ‘Sportning foydasi “mavzusida klasterni to’ldirish topshig’i berilgan.Ushbu pedagogik texnologiya bolalarni fikrlashga va musobaqa tarzida tasgkillashtirilsa tezkorlik va chaqqonlikka undaydi.²

❖ Taqqoslash metodi-an’anaviy va zamonaviy o’qitish usullari hamisha bir biri bilan uzviy ravishda amalga oshirib kelingan .Har doimgidek an’anaviy o’qitish usuli bir xillikni targ’ib qilsa zamoviy o’qitish usuli esa xilma-xillikni ,o’quvchilarda fang abo’lgan qiziqishni uyg’otishga undaydi .

❖ Kuzatish metodi-ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarning qo’llanish holatini o’rganish orqali pedagoglar dars jarayonida qo’llay oladigan yangicha metodlar tizimi yaratib olishlari mumkin.

❖ Pedagogik tajriba sinov metodi-tadqiqot davomida tabiatshunoslik fanlarini o’qitish jarayonida foydalanish mumkin bo’lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar o’rganib chiqildi.1-2- sinf tabiiy fanlarni o’qitish jarayonida ko’proq amaliy bajarishga oid bo’lgan didaktik o’yinlardan foydalanish o’rinliroq .Negaki,boshlang’ich ta’limning ushbu bosqichlarida bolalar maktabgacha ta’lim davrini endi tugatgan o’yinga chaqoq davrda bo’ladi va shu bilan birga darsliklarning usgbu qismlarida o’quvchilarni jismoniy harakatga undaydigan topshiriqlar ko’proq joy egallagan .3-4-sinf darsliklari esa aksincha.Ushbu darsliklarda esa o’quvchilarni fikrlashga ,aqlini charxlashga oid topshiriqlar o’rin olgan .shu o’rinda shu narsani ta’kidlash joizki ,boshlang’ich talimning ushbu bosqichlarida tabiiy fan darsliklarida “aqliy hujum”,“keys study”,“T metodi” “Aql charxpalagi “metodlaridan foydalanish o’rinli .

❖ Tadqiqot ob’ekti umumiy o’rta ta’lim muassasalarida tabiatshunoslik fanlarini o’qitish jarayoni bo’lib, predmeti esa mazkur jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish mexanizmlaridan iborat.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o’quvchilarning bilimlarni o’zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirdi. Interfaol metodlardan foydalanish o’quvchilarning mantiqiy fikrlashi va darsdagi faolligini kuchaytirdi. Multimedia vositalari va virtual laboratoriyalar mavzularni tushunishni osonlashtirdi va o’quvchilarni axborot kommunikatsiya texnologiyalariga bolgan qiziqishini oshiradi .tadqiqot davomida shu narsalar aniq bo’ldiki dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish afzallikalari bir nechta tashkil etadi :

- Vaqtdan samarali foydalanish
- Hayotiy va kasbiy kompetensiyalarni shallantirish
- O’quvchining kasbiy mahoratini oshirish
- Individual yondashuvni ta’minlash
- O’quvchi dunyoqarashini kengaytirish
- O’quvchilarning zamonaviy raqamli texnologiyalarga oid bo’lgan kasblarga qiziqishini

uyg’otish

Muhokama

Olingan natijalar pedagogika sohasidagi mavjud ilmiy qarashlar bilan mos keladi. Shu bilan birga, ayrim ta’lim muassasalarida moddiy-texnik baza yetarli emasligi va o’qituvchilarning raqamli kompetensiyasi pastligi muammolari aniqlanmoqda. Ushbu

² Y.V.Malikova .Tabiiy fanlar,1-sinflar uchun darslik ,2-qism 2024.-52-bet

muammolarni bartaraf etish uchun pedagoglarning malakasini oshirish muhimdir. Ushbu holat texnologiyalarni faqat texnik holat sifatida emas balki didaktik maqsadga yo'naltirilgan pedagogic jarayon sifatida tushunish zarurligini ko'rsatadi. Muhokama natijalariga ko'ra, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish uchun o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyalarni doimiy ravishda oshirib boorish metodik qo'llanmalar va amaliy tavsiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, texnologiyalarni tanlashda fan xususiyati o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tabiatshunoslik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi. Tadqiqotdan olingan xulosalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogic texnologiyalar asosida tasgkil etilgan darslar o'quvchilarning bilim darajasini oshirish ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, Shunday ekan ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalardan samarali tizimli foydalanish jarayonini takomillashtirish ta'lim sifatini oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olimov, Shirinboy Sharofovich, and Khusniddin Kupayinovich Khomidov. "Preparing Future Teachers To Solve The Tasks Of Patriotic Education Of Children And Youth." *The American Journal of Social Science and Education Innovations* 2.12 (2020): 132-136.
2. Khomidov, Khusniddin Kupaysinovich. "Cooperation between state and public organizations in the meaningful organization of youth leisure activities." *Thematics Journal of Social Sciences* 7 (2021).
3. Kupaysinovich, Khomidov Khusniddin. "INTERPRETATION OF STUDENTS'PATRIOTIC ISSUES IN ORIENTAL PEDAGOGY." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* 7 (2019).
4. Ҳомидов, Ҳусниддин, and Моҳинур Собирова. "ПЕДАГОГЛАРДА КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МАЗМУНИ ВА МОҲИЯТИ." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 3.10 (2024): 24-27.
5. Kupaysinovich, Homidov Husniddin. "Theoretical Foundations of Working with Educational Information Competencies." *Journal of Preschool Education and Psychology Research* 1.2 (2024): 3-4.
6. Хомидов, Хусниддин, and Моҳинур Умирова. "ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ УЧАЩИХСЯ." *Международная конференция академических наук*. Vol. 3. No. 12. 2024.
7. Homidov, H. K. "Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirishning amaldagi holati va takomillashtirish yo'llari." *Экономика и социум* 5-1 (108) (2023): 83-87.
8. Купайсинович, Ҳомидов Ҳусниддин. "ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ СИФАТИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЖАМОАТ ТАШКИЛОТЛАРНИНГ РОЛИ." *НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021* 1: 561.

9. Tursunova, Marjona, and Husniddin Homidov. "TECHNOLOGIES OF USING THE ORAL CREATION OF THE TURKISH PEOPLE IN THE SPIRITUAL ETHICAL EDUCATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS." TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA.



INNOVATIVE
ACADEMY